



UDK: 81'27:81'42:327:001.8

Oqila BAYJANOVA,

Dotsent, PhD

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

E-mail: aqilabayjanova89@gmail.com, ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-4031-8388>

Alfraganus universiteti professori v.b., f.f.d A.Xolboboyeva taqrizi asosida

ДИПЛОМАТИК ДИСКУРСНИНГ ЛИНГВОПРАГМАТИК ТАЛҚИНИ: НАЗАРИЙ КОНСЕПСИЯЛАР ВА ЗАМОНАВИЙ ЙОНДАШУВЛАР

Аннотация

Mazkur maqolada diplomatik diskursning lingvopragmatik talqini zamonaviy tilshunoslikdagi nazariy konsepsiyalar va ilmiy yondashuvlar asosida kompleks tarzda tahlil etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi diplomatik diskursni til va nutq tizimining institutsional shakli sifatida o'rganish, uning lingvistik hamda ekstralingvistik komponentlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash va turli ilmiy maktablar qarashlari asosida nazariy umumlashma ishlab chiqishdan iborat. Maqolada diskurs tushunchasining shakllanish bosqichlari, uning matn, nutq va kommunikativ vaziyat bilan munosabati hamda lingvistik tafakkurdagi evolyutsiyasi yoritilgan. Tadqiqot jarayonida diskursiv tahlil, qiyosiy-tavsifiy metod, kontekstual tahlil, lingvopragmatik yondashuv hamda nazariy umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Kalit so'zlar: diplomatik diskurs, lingvopragmatika, nutqiy strategiyalar, kommunikativ vaziyat, nota, janr, pragmatik xususiyatlar, ritorik xususiyatlar.

A LINGUOPRAGMATIC PERSPECTIVE ON DIPLOMATIC DISCOURSE: THEORETICAL FRAMEWORKS AND MODERN APPROACHES

Annotation

This article comprehensively analyzes the linguopragmatic interpretation of diplomatic discourse on the basis of theoretical concepts and scholarly approaches in modern linguistics. The main aim of the research is to study diplomatic discourse as an institutional form of language and speech, to identify the interrelation between its linguistic and extralinguistic components, and to develop a theoretical generalization based on the views of different academic schools. The article elucidates the stages in the formation of the concept of discourse, its relationship with text, speech, and communicative situation, as well as its evolution in linguistic thought. In the course of the study, the methods of discourse analysis, comparative-descriptive method, contextual analysis, linguopragmatic approach, and theoretical generalization were employed.

Keywords: Diplomatic discourse, linguopragmatics, speech strategies, communicative situation, diplomatic note, genre, pragmatic features, rhetorical features.

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ДИПЛОМАТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И СОВРЕМЕННЫЕ НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ

Аннотация

В данной статье лингвопрагматическая интерпретация дипломатического дискурса комплексно анализируется на основе теоретических концепций и научных подходов современной лингвистики. Основная цель исследования заключается в изучении дипломатического дискурса как институциональной формы языка и речи, в выявлении взаимосвязи между его лингвистическими и экстралингвистическими компонентами, а также в выработке теоретического обобщения на основе взглядов различных научных школ. В статье освещаются этапы формирования понятия дискурса, его соотношение с текстом, речью и коммуникативной ситуацией, а также его эволюция в лингвистическом мышлении. В ходе исследования были использованы методы дискурсивного анализа, сравнительно-описательный метод, контекстуальный анализ, лингвопрагматический подход, а также метод теоретического обобщения.

Ключевые слова: Дипломатический дискурс, лингвопрагматика речевые, стратегии коммуникативна, ситуация дипломатическая, нота, жанр, прагматические особенности, риторические особенности.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda diskurs termini lingvistik kategoriya sifatida XX asrning o'rtalaridan boshlab faol qo'llanila boshlagan bo'lib, bugungi kunga kelib u fanlararo tadqiqotlarning muhim obyektlaridan biriga aylangan. Hozirda diskurs tushunchasi nafaqat nazariy tilshunoslik doirasida, balki qator boshqa fan va yo'nalishlarda ham keng qo'llanmoqda. "Diskurs" leksemasi dastlab lotin tilidagi discursus so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u "harakat", "oldinga va orqaga yugurish" kabi ma'nolarni anglatgan. Keyinchalik ushbu birlik fransuz tilida "suhbat", "muloqot", "nutq" mazmunlarida qo'llanila boshlagan [1]. Mazkur tushunchani

tilshunoslik doirasida izohlashga dastlab urinib ko'rgan olimlardan biri Ferdinand de Sossyurning izdoshi, fransuz tilshunosi Emile Benveniste hisoblanadi. U F. de Sossyur tomonidan ilgari surilgan tilning sistema sifatidagi holati (langue) va nutqiy voqelanishi (parole) o'rtasidagi oppozitsiyani to'liq qo'llab-quvvatlamaydi. Shu bois u parole termini o'rniga "diskurs" atamasini ilgari surib, "til" va "diskurs" oppozitsiyasini qo'llashni taklif etadi. Benveniste talqiniga ko'ra, diskurs gap sathidan yuqori turuvchi birlik bo'lib, u doimo muayyan voqea-hodisa sifatida namoyon bo'ladi hamda so'zlovchining nutqiy faoliyati orqali

aktuallashadigan alohida harakatni ifodalaydi [2]. Diskurs atamasi lingvistik termin sifatida ilmiy muomalaga 1952-yilda amerikalik olim Z. Harrisning "Discourse Analysis" nomli maqolasi orqali kirib kelgan. Mazkur ishda olim diskursni muayyan vaziyatda bir yoki bir nechta shaxs tomonidan yaratiladigan og'zaki yoki yozma gaplar majmui sifatida ta'riflaydi. [3].

Haqiqatan ham, olimlarning uzoq yillar davom etgan ilmiy izlanishlari natijasida diskurs tahlilini o'rganishga ixtisoslashgan bir necha ilmiy maktablar shakllangani aniqlangan. Mazkur maktablar o'zaro ilmiy yondashuvlari, metodologik tamoyillari hamda tadqiqot an'analari bilan birbiridan farqlanadi. Ular orasida, ayniqsa, Anglo-Amerika, Fransuz, German-Avstriya va Rus diskurs tahlili maktablari alohida o'rin tutadi [4].

Anglo-Amerika maktabi XX asrning 50-yillaridan boshlab shakllanib, asosan diskursni mantiqiy-pragmatik yo'nalishda talqin etadi. Ushbu yondashuvda e'tibor ko'proq matnning ichki tuzilishi, xususan, undagi gaplar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tahlil qilish va ularni idrok etish masalalariga qaratiladi. Mazkur maktabning yetakchi vakillari qatoriga E. Sepir, T. van Deyk, Z. Harris, B. Uorf, R. Heysan, J. Martin, J. Sinkler, M. Grigori va boshqalar kiradi. Ular diskursni dialogik muloqot bilan chambarchas bog'liq hodisa sifatida ko'rib, Z. Harris terminologiyasiga tayangan holda uni "bog'langan nutq" (connected speech) tarzida izohlaganlar [5].

Fransuz maktabi XX asrning 60-yillaridan boshlab shakllanib, diskurs analizining sotsio-semiotik yo'nalishining rivojiga asos yaratgan. Ushbu maktabning yirik vakillari qatoriga R. Bart, M. Fuko, R. Roben, P. Serio, M. Peshe, G. Parre, J. Derrida va boshqalar kiradi. Bunda asosiy e'tibor matnning ijtimoiy ma'no yaratish mexanizmlari, uning ideologik qatlamlari hamda semantik va struktural xususiyatlarini tizimli ravishda tahlil qilishga qaratiladi.

German-Avstriya maktabi XX asrning 70-yillaridan boshlab shakllanib, asosan fransuz olimi Mishel Fukoning diskurs haqidagi konsepsiyasi ta'sirida rivojlangan. Ushbu yo'nalish vakillari sifatida U. Maas, Z. Eger, J. Link va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Ularning qarashlariga ko'ra, diskurs muayyan mavzuviy yo'nalish atrofida birlashgan matnlar tizimini anglatadi

Rus maktabi esa XX asrning 70-90-yillaridan boshlab faol rivojlana boshlagan. Bu yo'nalish vakillari qatoriga V.I.Tyupa, I.V.Silanyev, Yu.V.Shatin, P.P.Shkarenkov kabi olimlar kiradi. Mazkur maktabda diskurs T. van Deyk paradigmasi asosida, avvalo, "kommunikativ voqea" sifatida izohlanadi. Volgograd ilmiy maktabi vakillari — V.I.Karasik, M.R.Zeltuxina, E.A.Popova, E.I.Sheygal va boshqalar esa diskursni jamiyat hayotiga chuqur singib ketgan lingvosotsiologik hodisa sifatida baholaydilar [6].

Yuqorida qayd etilgan turli nazariy maktablar vakillarining ilmiy qarashlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, diskurs lingvistik omillar, ya'ni til birliklari va ularning kombinator xususiyatlari, shuningdek ekstralingvistik omillar — ijtimoiy, madaniy, ideologik hamda pragmatik jihatlarining murakkab uyg'unlashuvi natijasida shakllanadigan hodisadir.

Tadqiqot metodlari. Yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ilmiy izlanishlari shuni ko'rsatadiki, ular diskursning matn orqali voqelanishini e'tirof etgan bo'lsalarda, uni alohida "dunyo" sifatida talqin etishlari diskursni faqat matn doirasida cheklab bo'lmashligini anglatadi. Aynan shu nazariy qarashlar mazkur tadqiqotning metodologik poydevorini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi. Shu asosda tadqiqotda diskursga faqat strukturaviy birliklar majmui sifatida emas, balki kommunikativ jarayonda jonli tarzda namoyon bo'ladigan dinamik tizim sifatida yondashildi va kompleks metodologik usullar majmui qo'llanildi. Xususan,

diskursiv tahlil metodi yordamida diplomatik diskursning semantik, pragmatik va institutsional qatlamlari aniqlashtirildi. Mazkur metod diskursning ichki tuzilishini tahlil qilish bilan birga, uning ideologik yuklamasi hamda kommunikativ funksiyalarini ochib berish imkonini yaratdi. Qiyosiy-tavsifiy metod vositasida Anglo-Amerika, Fransuz, German-Avstriya va Rus diskurs tahlili maktablari tomonidan ilgari surilgan nazariy konsepsiyalar o'zaro solishtirilib, diplomatik diskursni izohlashdagi umumiy va farqli jihatlar belgilab olindi. Kontekstual tahlil esa diplomatik nutqning muayyan xronotop doirasida shakllanishini, ya'ni uning makon va zamon omillari bilan uzviy bog'liqligini yoritishga xizmat qildi.

Natija va munozara. Xorijiy tilshunos olimlarning diskurs tushunchasiga bergan ta'riflarini ham alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, Debora Shifrin ushbu tushunchani uch xil yondashuv asosida izohlaydi. Birinchi yondashuv formal yo'nalishga mansub bo'lib, unga ko'ra diskurs gap yoki so'z birikmasi sathidan yuqorida turuvchi til birligi sifatida talqin etiladi, ya'ni u "gapdan yoki klauzadan yuqoridagi til" deb qaraladi [7]. Ikkinchi yondashuv esa diskursga funksional nuqtayi nazardan yondashib, uni til qo'llanishining har qanday jihatini o'rganish bilan bog'laydi hamda "tilning turli ko'rinishdagi ishlatilishi" sifatida izohlaydi. Mazkur yondashuv tilning keng ijtimoiy-madaniy kontekstdagi vazifalarini tahlil qilishni nazarda tutadi. Uchinchi yondashuvda esa shakl va funksiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asosiy o'ringa chiqadi. Bu nuqtayi nazarga ko'ra, diskurs fikrsni nutqiy ifodasi, ya'ni utterance sifatida tushuniladi. Shunday qilib, diskurs faqat "gapdan kattaroq" bo'lgan lisoniy birliklarning oddiy yig'indisi emas, balki muayyan vaziyatda funksional jihatdan tashkil topgan va kontekst bilan chambarchas bog'liq bo'lgan til birliklari majmui sifatida namoyon bo'ladi.

Robert de Bogranning diskurs tushunchasiga bergan yondashuvi, shubhasiz, alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Olim mazkur hodisani o'ziga xos va nisbatan original nuqtayi nazardan talqin etadi. Uning ta'kidlashicha, real hayotda til mustaqil, o'z-o'zicha mavjud bo'ladigan hodisa emas. Ya'ni tilni mavhum va ajratilgan holda uchirish mumkin emas: masalan, kanal bo'yida sayr qilayotgan "golland tili"ni, choy ichib o'tirgan "ingliz tili"ni yoki biror ish bilan band bo'lgan "nemis tili"ni ko'rib bo'lmaydi. Inson real voqeelikka faqat diskurslarga, ya'ni aniq kommunikativ vaziyatda yuzaga keladigan jonli muloqot hodisalariga duch keladi [8].

Ayrim tilshunoslar "diskurs" va "matn" tushunchalarini o'zaro farqlashga intilib, ular orasidagi munosabatni aniqroq belgilashga harakat qiladilar. Shu nuqtayi nazardan, ayrim yondashuvlarda diskurs "matn plyus situatsiya", matn esa "diskurs minus situatsiya" tarzida izohlanadi [9]. Bunday talqinda asosiy farqlovchi omil sifatida kommunikativ vaziyat, ya'ni situatsion kontekst e'tirof etiladi. Ba'zan ushbu ikki kategoriya o'rtasidagi tafovutni belgilashda yozma va og'zaki nutq oppozitsiyasiga ham murojaat qilinadi. Jumladan, I.R.Galperin matnni "nutqiy ijodning yozma shakldagi ko'rinishi" sifatida ta'riflaydi [10]. Z.Ya.Turayeva esa og'zaki nutqni bu doiradan chetda qoldirgan holda, matnga yanada torroq yondashadi va uni yozma hujjat shaklida obyektlashgan, tugallangan nutqiy-ijodiy jarayon mahsuli sifatida talqin qiladi. Shunday qilib, ayrim nazariyalarda matn asosan yozma nutq bilan bog'liq hodisa sifatida ko'riladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy tilshunoslikda "diskurs" tushunchasi turli ilmiy yondashuvlar bilan tavsiflanadi. Xususan, A.M.Kaplunenko "diskurs" va "matn" munosabatini aniqroq chegaralab beradi. Uning fikricha, diskurs tilshunoslikning nisbatan keng va universal obyekti bo'lib, u nafaqat nutqning til strukturasi, balki kommunikativ vaziyatning tipik parametrlari,

kommunikantlarning individual xususiyatlari hamda muloqotni tashkil etish strategiyalarini ham o'z ichiga oladi. Matn esa diskursga nisbatan torroq tushuncha bo'lib, asosan nutqning strukturaviy va mazmuniy parametrlari bilan cheklanadi. Shu bois diskurs matndan ko'ra kengroq qamrovga ega bo'lgan murakkab hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlardan anglashiladiki, "diskurs" va "matn" atamaları aynan bir xil mazmunni ifodalovchi tushunchalar emas. Aksincha, "diskurs" "matn"ga nisbatan kengroq mazmunga ega bo'lib, u matn bilan bir qatorda kommunikativ vaziyat, nutqiy faoliyat, ijtimoiy-madaniy kontekst va pragmatik omillarni ham qamrab oladi. Shu bois matn diskursiv faoliyat jarayonida yuzaga keladigan natija sifatida namoyon bo'lsa, diskurs insonning jonli nutqiy faoliyatining muayyan turi sifatida qaraladi. Demak, matn diskursning aniq shakllaridan biri hisoblanadi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, diplomatik faoliyat, avvalo, ikki yoki undan ortiq davlatlar o'rtasida muzokaralar olib borish mahorati, shuningdek, turli davlatlarning manfaatlarini himoya qilish san'ati sifatida talqin etiladi. Shu nuqtayi nazardan, diplomatik diskurs xalqaro munosabatlar doirasida amalga oshiriladigan rasmiy muloqotning o'ziga xos turi bo'lib, u elchilar, diplomatlar, siyosiy arboblarning hamda xalqaro tashkilotlar vakillari tomonidan olib boriladigan yuqori darajadagi nutqiy faoliyatni anglatadi. Mazkur diskurs turi xalqaro siyosat, xavfsizlik, hamkorlik, muzokaralar olib borish, nizolarni yumshatish va inqirozlarni bartaraf etish kabi muhim masalalarni qamrab oladi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan, strategik kommunikatsiya asosida shakllanadi. Diplomatiya diskursning mohiyati va maqsadlari yuzasidan qator olimlar o'z fikrlarini bildirganlar. Jumladan, E.A. Veber diplomatik faoliyatning asosiy vazifasini milliy manfaatlar va xalq farovonligini ta'minlash, shuningdek, mamlakat nomidan tashqi siyosiy faoliyatni qurolli to'qnashuvlarsiz, tinchlikni mustahkamlash yo'lida olib borish bilan bog'laydi [11]. Mazkur nazariy qarashlarga tayangan holda, diplomatik diskursga quyidagicha umumlashtirilgan ta'rif berish mumkin: diplomatik diskurs — diplomatiya sohasida qo'llaniladigan, ehtiyotkorlik, mulohazakorlik va siyosiy muvozanat tamoyillariga asoslangan og'zaki yoki yozma muloqot shaklidir. U, odatda, rasmiylik, vazminlik va kommunikativ

nazokat bilan tavsiflanib, ayniqsa bahsli yoki ziddiyatli masalalarda keskinlikni yumshatish, o'zaro anglashuvga erishish hamda siyosiy maqsadlarni strategik yo'l bilan ilgari surishga xizmat qiladi. Mavjud tasniflarni tahlil qilish asosida diplomatik hujjatlarga oid o'zimizning tasnifimizni ham taklif etish mumkin. Ular quyidagilardan iborat:

Idoraviy ichki hujjatlar deganda adresant va adresat bir xil idora yoki muassasa tarkibiga mansub bo'lgan kommunikativ hujjatlar tushuniladi. Bunday hujjatlarga, masalan, Tashqi ishlar vazirligi doirasida olib boriladigan xizmat yozishmalari kiradi.

Davlatlararo hujjatlar esa yuboruvchi va qabul qiluvchi turli davlatlar vakillari bo'lgan rasmiy hujjatlar turini anglatadi. Mazkur tur diplomatik hujjatlarning eng keng va muhim toifalaridan biri bo'lib, unga xalqaro bitimlar, konvensiyalar, konstitutsiyaviy mazmundagi hujjatlar hamda shu kabi boshqa rasmiy materiallar kiradi.

Diplomatik yozishmalar davlatlararo munosabatlarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi turli ko'rinishdagi rasmiy korrespondensiyalar va diplomatik mazmundagi hujjatlar yig'indisidir. U davlat tashqi siyosati va diplomatik faoliyatining asosiy ifoda shakllaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, hujjat - bu ma'lumotni moddiy tashuvchida rasmiylashtirilgan shaklda qayd etuvchi hamda uni aniqlash imkonini beruvchi rekvizitlarga ega yozma manbadir [12].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, diplomatik diskursni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish faqat til birliklarining kommunikativ xususiyatlarini aniqlash bilan cheklanmaydi. U, shu bilan birga, nutqiy jarayonning siyosiy, madaniy va pragmatik omillar bilan chambarchas bog'liqligini ham qamrab oladi. Diplomatiya diskurs muayyan xronotop, ya'ni aniq makon va zamon doirasida shakllanuvchi, institutsional maqomga ega, ijtimoiy-madaniy muhit bilan uzviy aloqador hamda yuqori darajada virtuellashgan lingvistik-amaliy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli uni faqat lingvistik hodisa sifatida emas, balki uning zamirida mujassam bo'lgan ideologik, tarixiy-madaniy va kommunikativ strategiyalar bilan birgalikda tahlil etish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Инжечик А. К истории развития понятия «дискурс» в современной лингвистике // Доклады Башкирского университета. – 2019. – №6. – С. 642.
2. Goodrich P. Legal Discourse: Studies in Linguistics, Rhetoric and Legal analysis. – London: The Macmillan Press LTD, 1987. – P. 135
3. Harris Z. Discourse analysis // Language. Robins R. H. General Linguistics. An Introductory Survey. – London, 1971. – P. 27; 1952. – №1. – P.3.
4. Shevchenko A. Discursive analysis of mass media texts. // bulletin of Russian Communication Association "Theory of communication and applied communication". Issue 1 / edited by I.N. Rozina, 2002. – P. 153-160. (168)
5. Коновалова М. Глобальные категории когерентности и интертекстуальности в юридическом дискурсе. Дисс. ...канд. филол. наук. – Челябинск, 2008. – С. 14-15.
6. Чернявская В.Е. Лингвистика текста. Лингвистика дискурса. – Москва: «ФЛИНТА» / «наука», 2013. – С.105-112.
7. Чернявская В.Е. Лингвистика текста. Лингвистика дискурса. – Москва: «ФЛИНТА» / «наука», 2013. – С.105-112.
8. Степанов Ю.С. Язык и метод. К современной философии языка / Ю.С. Степанов. – М.: "Языки русской культуры", 1998. – С. 784.
9. Макаров М.Л. Интерпретативный анализ дискурса в малой группе / М.Л. Макаров. – Тверь: Изд-во Тверского госуд. университета, 1998. – С. 199.
10. Beaugrande de R. The Story of Discourse Analysis / R. de Beaugrande // Discourse as Structure and Process. Discourse Studies: A Multidisciplinary Introduction. – London-Thousand Oaks – New Delhi: SAGE Publications, 1997. Vol.1. – P. 35-63.
11. Dijk van T.A. The Study of Discourse. Discourse as Structure and Process. Discourse Studies: A Multidisciplinary Introduction / van T.A. Dijk. – London – Thousand Oaks – New Delhi: SAGE Publications. – 1997. – Vol.1. – P. 352.
12. Борботько В.Г. Элементы теории дискурса / В.Г. Борботько. – Киев: Вища школа, 1981. – С. 104. (144).
13. Ostman, Virtanen 1995:240
14. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования / И.Р. Гальперин. – М.: Наука, 1981. – С. 18. (140).
15. <https://www.koob.ru/turaeva/>
16. Вебер Е.А. Опыт лингвистического исследования когнитивного диссонанса в английском дипломатическом дискурсе. Автореф. кан. фил. наук. – 2004. Иркутск. – С. 20.

-
17. Кушнерук С.П. Документная лингвистика: учеб. пособие [Текст] / С.П. Кушнерук. - 2е изд., испр. и перераб. - М.: Флинта: Наука, 2008. – С. 26. (256)